



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2022 - yil 16 - may

215-8-109-Q/22

Angor tuman hokimligi

**Viloyat hokimining 2022 yil 6 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasining “Ta‘lim muassasalarida yo‘l harakati qoidalari targ‘ibotini kuchaytirish
chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 26-apreldagi 212- son qarori ijrosini ta‘minlash
haqida”gi 286-8-0-Q/22-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27-son Farmoni hamda “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta‘minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2022 yil 6 maydagi 286-8-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qaror bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining amaldagi shtat birliklari doirasida Yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining hududiy boshqarmalarida Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda xizmat olib boradigan katta inspektor lavozimi joriy etilishi;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida ko‘ngilli yoshlar ishtirokida yo‘l harakati qoidalarini faol targ‘ib qiluvchi “Yo‘l harakati qoidalari yosh targ‘ibotchisi” klubi va “Yashil chiroq” musobaqasi tashkil etilishi;

“Yo‘l harakati qoidalari yosh targ‘ibotchisi” klubi to‘g‘risidagi nizom hamda “Yashil chiroq” musobaqasini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari (R.Qulnazarov)ga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-son Farmoni 2-bandining to‘qqizinchi xatboshisiga muvofiq mahalla fuqarolar yig‘inlarining ta’lim muassasalariga yaqin hududlarida “Yo‘l harakatini o‘rganish maydonchalari”ni tashkil etish uchun qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydonlaridan yer uchastkalarini ajratish choralarini ko‘rsin.

4. Ichki ishlar bo‘limi (S.Choriev)ga:

tuman hokimligi bilan birgalikda ikki oy muddatda mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida ajratilgan yer maydonlarida 2022-2024-yillarda “Yo‘l harakatini o‘rganish maydonchalari”ni tashkil etish dasturini ishlab chiqib, tasdiqlasin va ijrosini ta’minlasin;

viloyat Transport boshqarmasi bilan hamkorlikda 2022-2024-yillarda ta’lim muassasalari atrofida belgilangan tartibda harakat tezligini kamaytiruvchi sun’iy notekisliklar va shovqin chiziqlari bosqichma-bosqich o‘rnatilib, to‘liq jihozlanishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV